

TOHIR MALIKNING “ALVIDO... BOLALIK” QISSASIDA BOLA RUHIY OLAMI

Turakulova Sitara Fazlidinovna

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti Sharq tillari fakulteti

Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi.

stelle1409@mail.ru +99890-190+-30-80.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18341203>

Annotatsiya. Maqolada Tohir Malikning “Alvido...bolalik” qissasi tahlil qilinadi. Qissa bosh qahramoni – Qamariddin ruhiy olamidagi qarama-qarshiliklarga munosabat bildiriladi.

Uning yosh qalbidagi isyonlar, atrof-muhitga yaqinlariga bo'lgan begonalik hissi qalbida doimo alanga olib turadi. Maqolada aynan mazkur qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar, evrilishlarga munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: ruhiy olam, dunyoqarash, ijtimoiy muhit, olaviy munosabat, loqaydlik, inson taqdiri, ijtimoiy ong, tahlil, talqin va munosabat.

Tohir Malikning “Alvido... bolalik” qissasi bolaligini erta yo'qotgan, yosh bo'lishiga qaramay hayot sinovlarida toblangan “kattalar” haqidagi asar. Ushbu asarda oiladagi nizolar, jamiyatda ildiz otib ketgan muammolar, loqaydlik, poraxo'rlik, tanish-bilishchilik kabi illatlar yorqin ifodalangan. Shular qatorida, bolalarning samimiy hayoti, Vatanga sadoqat hissi, kasbga muhabbat kabi g'oyalar bilan boyitilgan.

Asarni o'qish asnosida hayotda qoqilgan mehr neniligini his qilmagan bolalar taqdiri kishini o'yga toldiradi. Oilaviy muhit, qiyinchiklar tufayli nosog'lom hayotga kirib borayotgan (Asror, Salim va Dilfuza) yosh bolalar obrazi, to'qchilik oqibatida o'zligini unitayotgan (Keldiyorovlar oilasi) insonlar taqdiri nihoyatda murakkab tasvirlar orqali namoyon etiladi. Asar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Qahramonlar hayotidagi voqealar orqali barcha davrlar uchun kerakli bo'lgan muammolar, oson o'qiladigan, sodda va tushunarli yoritib berilgan.

“Alvido... bolalik” asari nafaqat yoshlar uchun yozilgan asar, aslida bu kitob kattalar uchun yaratilgan asar hamdir. Kitobda yoshlar kattalarning aybi, qilgan xatolari tufayli boshi berk ko'chalarga kirib qoladi. Bu achinarli holat, albatta bu jarayonda yoshlardan ko'ra kattalar xulosa chiqarishsa, bu kabi xatolarni takrorlamasa, oila deb atalmish muqaddasi maskanga sadoqat bilan yashashsa, shundagina yoshlar hayotda o'z o'rnilarini topib, xatolar kamayib boraveradi. Aks holda...

Asarning debochasida yozuvchi quyosh tasviri orqali (peyzaj) yoshlik davrini bolalar turli xil tarzda boshdan kechirishiga juda chiroyli tarzda qiyoslab beradi: “Quyosh qayerdadir tog' ortidan, qayerdadir cho'l adog'idan, qayerdadir asriy muzliklar orasidan bosh ko'taradi.

Quyoshning tongdagi, ayniqsa, bahor tongidagi ko'rkini ko'rish barchaga ham nasib qilavermaydi. Quyosh barchaga baravar nur sochadi, deydilar. Haq gap. Biroq, uning nuridan hamma ham bir xilda bahramand bo'lavermaydi.”¹ Bu bilan yozuvchi har bir murg'ak qalb ham beg'ubor yoshlik davrini bir xil qarshi olavermaydi, demoqchi bo'ladi. Kimdir mehrga to'la, qiyinchiliklardan holi, oilada, ota-onasi va yaqinlari bilan yoshlik sururini sursa, kimdir bu davrni panjara ortida, ahloq tuzatish koloniyasida, to'rt devor orasida yoki ziddiyat va ro'zg'or

¹ Tohir Malik. Alvido... Bolalik. Qissa. – T., 2009,3-b.

tashvishlari, qiyinchiliklarga boy zulmat ostida o'tkazadi demoqchi, nazarimizda. Yoshlik inson umrining eng yorqin pallasi hisoblanadi.

Qissada asosiy obrazlar – yosh bolalar, maktab o'quvchilari. Ularning rahnamosi Qamariddin. Qamariddin bolalar uyida tarbiyalangan. Axloq tuzatish mahkamasida ma'lum muddat yashagan bola. Qamariddin obrazi nihoyatda murakkab. U alamzada. Ota-onasidan, kattalardan alamzada. Chunki u yoshligidan mehrga, e'tiborga tashna bo'lib o'sdi. Mehribonlik uyida doimo ota-onasini kutib yashadi. Ularni xayolan rasmlarini chizdi, suhbatlashdi, diydorlashdi. Ammo xayollari ro'yo bo'lib chiqdi. U orzu qilgan oila, ota-ona uning xayollarida, kichkina bola xotirasida abadiy qolib ketdi. Nohaqliklardan charchagan, yetimlik azobini totgan, barchadan alamzada yoshgina Qamariddinning “Sening himoyaching yo‘q, hech kim senga qayishmaydi, nohaqlikka qarshi o‘zing kurashishing kerak. O‘zingni o‘zing himoya qil! Kurash, yengib chiq. Kimligingni ko‘rsat ularga!”, deb qat’iy ahd bilan, hayotda o‘z o‘rnini topishga harakat qilishi tahsinga loyiq. Qamariddinning qilgan xatolarida, tanlagan yo‘lida uning aybi yo‘q, aslida. Uni shu yo‘lni tanlashga majbur qilgan, jamiyat va kattalarning aybidir. U nihoyatda mehribon. Ayniqsa Asrorga e'tibor bilan: “Meni birov suyamagan edi. Men shu bolani odam qilaman, o‘zim qamalib, otilib ketsam ham, uni o‘qitaman!”² – degan fikrlari fikrimizning isboti.

Asardagi bolalar koloniyasining yoritilishi, u yerdagi muhit, har bir bolaning iztirobi, o'ziga xos hayotiy voqealari kitobxon uchun katta dars hisoblanadi.

Tohir Malikning “Alvido... bolalik” qissasidagi Qamariddin obrazining kontekstual tahlili	
Joy	Bolalar koloniyasi, anhor bo‘yi
Voqea-hodisa / harakat	Qamariddin to‘da boshi
Faoliyat sferasi	Hayotda o‘z o‘rnini topa olmaslik, ota-ona va yaqinlarning e’tiborsizligi
Ishtirokchilar	Mayor Maqsud Soliyev, Qamariddin, Asror, Dilfuza, Salim
Ishtirokchilar roli	To‘da boshi – Qamariddin, qotillikda Salim, Asrorlar ishtirokchi, Dilfuza guvoh
Ishtirokchilarning kognitiv xarakteristikasi	Qamariddin yetim bola, yolg‘iz, e’tiborsizlik, kamsitishlardan alamzada

Qamariddin mayor Soliyev bilan suhbatlashganda uni o‘zining qarashlari bilan hayron qoldiradi: “Mana mening militsiyada ishlagim bor. Jinoyatchini sizdan ko‘ra tezroq topishim mumkin. Chunki ularning uslublarini, o‘ylarini bilaman. Sizda ko‘ra kuchliroqman, epchilroqman.

Undan tashqari sira pora olmayman, chunki pora olib xonavayron bo‘lganlarni ko‘p ko‘rganman. Qarang, qanday ajoyib xislatlarim bor. Lekin siz ishga olmaysiz meni. Chunki menga ishonmaysiz – o‘tmishim chatoqda. Meni shunday yaratib qo‘yganiga xudoning o‘zi ham xayron bo‘lsa kerak.

² Tohir Malik. Alvido... Bolalik. Qissa. – T., 2009,52-b.

Vaqt kelib, u dunyoda so‘roq beradigan paytimda men avval shart qo‘yaman; siz avval meni bu holga tushishga majbur qilgan bandalaringizni olib keling, ular bilan meni yuzma-yuz qiling, ana undan keyin savol-javobingizni boshlang, deyman. Agar meni do‘zaxda kuyishga hukm qilishsa, albatta o‘shalar bilan birga yonib-kuyaman. Boshqacha hukmiga ko‘nmayman”.³

Mayor Qamariddinning gaplarini eshitib xayron qoldi. Fikrlari, dunyoqarishi mayorni o‘ylantirib qo‘ydi.

Xullas, Tohir Malik o‘zbek adabiyotining teran ruhiy olamga ega yozuvchilaridan biri bo‘lib, uning “Alvido, bolalik” nomli asari ayniqsa inson ruhiyati, bolalik va hayot haqiqatlarini birlashtirib berishi bilan ajralib turadi. Shuni ta’kidlash joizki, qissada har bir personaj alohida xarakter xususiyatiga ega bo‘lib, ularning xarakteri orqali yozuvchi o‘z davrining ijtimoiy muammolari, ruhiy tushkunliklar, oila va tarbiyaning ahamiyati haqida chuqur fikr yuritadi.

Qissadagi har bir tasvir, har bir detal o‘zida ma’lum bir yukni tashiydiki, bu yozuvchi mahoratining nihoyatda yuksakligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение и проблема литературных влияний, «Изв. АН СССР. Отд. обществ. наук», 1936, № 3.
2. Tohir Malik. Alvido... Bolalik. Qissa. – T., 2009. – B.103.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B.408.
4. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б.155.
5. Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.160.
6. Хализев В.Е. Теория литературы. Высшая школа. – Москва, 2004. – С.328.

³ Tohir Malik. Alvido... Bolalik. Qissa. – T., 2009, 96-b.